



NIZOMULMULK MADRASALARI VA TA'LIM TIZIMI

Narzullayeva Zulxumor Hazratqul qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nizomulmulk barpo etgan madrasalarida kuchli diniy ta'limdi targ'ib qilish bilan birga Islom huquqi degan tushunchani mos ravishda targ'ib qilgan holda ishonchli, iqtidorli, qobiliyatli va shuningdek salohiyatli rahbarlarni yetishtirish bo'lgani haqida yozilgan. Diniy bag'rikenglik va birlashtiruvchi siyosati olib borgan, mamlakatni tark etgan Qusayriy va Juvayniy kabi taniqli olimlarga uylariga qaytishga ruxsat berdi. Bu bag'rikenglik siyosati o'zining madrasalarida ham ko'rsatdi. Chunki u asos solgan Nizomiya madrasalari turli xil fikrlovchilar borishlari mumkin bo'lgan ilmiy va ma'muriy markazlar yoxud universitet harakteriga ega bo'lgan.

Kalit so'zlar: Nizomulmulk, Nizomiya madrasalari, Bag'dod, Mosul, Basra, Nishopur, Balx, Hirot, Isfaxon, Marv, Omul, Ray, Tus.

Kirish

Nizomalmulk butun saljuq imperiyasi bo'ylab "Nizomiya" nomi bilan ataluvchi kutubxonaga ega madrasalar tashkil qilishni boshlab bergen. "Nizomiya" madrasalarida o'sha davrning mashhur olimlari ta'lif bergen. Ushbu madrasalar vazir Nizomulmulk nomi bilan yodga olinadi. Madrasalardan eng mashhuri Bag'doddagi Nizomiya madrasasi bo'lgan, bundan tashqari, Isfahon, Nishopur, Balx, Hirot, Basra, Mosul va Omulda ham shu kabi madrasalar tashkil etilgan.

Nizomulmulk barpo etgan madrasalarida kuchli diniy ta'lindi targ'ib qilish bilan birga Islom huquqi degan tushunchani mos ravishda targ'ib qilgan holda ishonchli, iqtidorli, qobiliyatli va shuningdek salohiyatli rahbarlarni yetishtirish bo'lgan. Diniy bag'rikenglikva birlashtiruvchi siyosati olib borgan, mamlakatni tark etgan Qusayriy va Juvayniy kabi taniqli olimlarga uylariga qaytishga ruxsat berdi. Bu bag'rikenglik siyosati o'zining madrasalarida ham ko'rsatdi. Chunki u asos solgan Nizomiya madrasalari turli xil fikrlovchilar borishlari mumkin bo'lgan ilmiy



va ma'muriy markazlar yoxud universitet harakteriga ega bo'lgan. Nizomulmulk Bag'dod, Mosul, Basra, Nishapur, Balx, Hirot, Isfaxon, Marv, Omul, Ray va Tus singari yirik shaharlardagi ko'plab markazlarni tashkil etdi.

Asosiy qism

Buyuk Saljuqiylar sultonligi vaziri Nizamulmulk tomonidan 1068 yilda Bag'dodda ochilgan "Nizomiya madrasasi" turk oliy ta'lim tarixida oliy ta'lim muassasasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Imom G'azzoliy Nishapur madrasasida ta'lim olgan va Bag'dodda ochilgan "Nizomiya madrasasi"da, 1091-1095 yillar orasida mudarrislikqildi. Ushbu madrasa, Dajla atrofidagi Nizomiya madrasasining eng qadimgisi va hozirgi Bojxona Bozoridir. 1064-1066 yillar mobaynida qurilgan madrasa Buyuk Saljuqiylar davlatining ilm-fani va ta'limiga berilgan e'tibori tufayli sun'iy islomiy jamiyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan. O'sha davrning boshqa Nizomiya madrasalardan ko'ra buyukroq bo'lgan Bag'dod Nizomiya madrasasida mashhur fiqh olimi Abu Ishoq Shiroziy birinchi darsni berdi.

Madrasada, shofeyi mazhabi fiqhi, tafsir, hadis, faroiz va kalom darslari ta'lim berildi va ko'pgina olimlar tarbiyalandi. To'rt ayvonli hovlili madrasalarning oldilarida talabalar hujralari, kutubxona, hammom, imorat va shifoxona qo'shimcha binolari bilan jihozlangan. 1110 yilda to'liq ta'mirlangan bo'lsa-da, u 1248 yilda Dajla toshqinidan zarar ko'rgan. Madrasada XV asrgacha ta'lim berishni davom ettirdi va keyin tashlab ketildi. XIX asr bosqlarida koshinlari bezatilgan ikkita ayvoni va devor parchalari topilgan madrasadan bugungi kunda hech qanday alomat yo'q.

Bag'dod Nizomiya madrasasida 6 ming, Nishapur Nizomiya madrasasida esa 300-400 talaba o'qitilgan. Bag'dod Nizomiya madrasasida o'qigan taniqli kishilarning ba'zilari quyidagilar: Ibn Tumart, Abu Bakr Muhammad ibn Valid, Ibn Asakir, Imodudin al-Isfahoniy.

Nizomiy madrasalarining asosiy vazifalari:

- 1) Diniy ilmlar bilimdonini tarbiyalash;
- 2) kambag'al va iste'dodli o'quvchilarni o'qitib,jamiyatga foyda keltirish;



- 3) imperiyani boshqarish uchun davlat xizmatchilarini tarbiyalash;
- 4) davlat arboblarini tarbiyalash;
- 5) olimlarni majburiyat va ish haqi bilan ta'minlash va nazorat qilish.

Nizomiya madrasalari, “ta’limda imkoniyat va teng imkoniyat” ni amalga oshirishga harakat qildi. Davlat madrasalarni “yotoqxonali va stipendiyali” ta’limi muassasasilari holatiga keltirish orqali o‘qitishda imkoniyat va teng imkoniyatni ta’minlashga harakat qilgan. Bundan tashqari, “talaba maqomi”da ba’zi yangiliklarni kiritdi. Ushbu yangiliklar, madrasaning ko‘plab o‘quvchilarining yotoqxonalargajoylashtirilgani va madrasaning vaqfidan stipendiya olishlari mumkinligi edi.

Ushbu maktablar shunga o‘xshashlari Konya, Kayseri, Sivash va Arzurumda Kichik Osiyo Saljuqiylar tomonidan ochilgan. Bir davrning ilm markazi sifatida jamiyatni yoritgan Nizomiya madrasalari, Usmoniy madrasalari uchun namuna bo‘lgan. Imom G‘azzoliy kabi buyuk shaxs, Nizomiya madrasasida bosh mudarris bo‘lgan va u yerda olimlar va ustozlar sifatida o‘nlab talabalarni tarbiyalagan. Darhaqiqat, madrasalar Saljuqiylar oldida ham qurilgan. Biroq ular xususiy madrasalar edi. Nizomiya madrasalari esa davlatning nazorati va himoyasi ostida faoliyat ko‘rsatadigan rasmiy va muntazam ta’lim muassasalari edi. Nizomulmulk madrasalari va Qoraxonli madrasalari o‘rtasida turli o‘xshashliklar mavjud. Saljuqiylar madrasalari Qoraxonli madrasalari kabi buddist monastirlariga o‘xshardi. Shu sababli taniqli sharqshunos Vilgelm Bartold (1869-1930) Saljuqiylar madrasalari uchun go’zal namunalar sifatida qabul qilinganligini aytgan.

Madrasada o‘qilgan asosiy darslar Qur’on va Qur’on ilmlari, hadislar, Shofe’iy fiqh va Shofeyi fiqh usullari (Islomiy qonuniy metodikasi), Ashariya aqidasi, Arab adabiyoti, Arab tilshunosligi, Voizlik, Riyoziya va Faroiz (Islomiy meros qonuni) edi. Domlalar o‘quvchilar o‘tirgan joydan yuqoriroq kursdagilarda o‘tirib saboq berardi. Dars soatlari mavsumlarga, darsning xususiyatiga va domlalarning ilmiy darajasiga qarab o‘zgarib turadi. Darslar hafta davomida tushlikdan oldin boshlanar, tushlik vapeshindan keyin va kechqurun namozlaridan



keyin darslar davom ettirilardi. Ta’lim tili arabcha edi. Yigirma yoshdan oshgan talabalar kirishi mumkin bo‘lgan madrasadada o‘qish muddati to‘rt yil edi.

Nizomiya madrasining ba’zi xususiyatlari quyidagilardir:

1) Madrasa bilan masjidlar: Madrasalar me’morchiligi jihatidan masjiddan mutlaqo alohida rejaga ega. Ushbu qurilishlar madrasalar, maktablar arxitekturasi yoki universitet kampuslarining birinchi namunasini tashkil qilganligi aniqlandi.

2) Madrasalar avval Turkistonda Qoraxoniylar tomonidan tashkil etilgan va G‘aznaviyilar va Somoniylar tomonidan ham rivojlantirishi bilan birga, madrasalarning davlat va jamiyatning katta qiziqishi va qo‘llab-quvvatlashi natijasida ular Nizomiya madrasalari nomi bilan keng tarqalgan va universitetlar maqomini qo‘lga kiritgan.

3) Odatda Nizomiya madrasalarida din, huquq va til o‘rgatilardi. Falsafaga birinchi munosabat Bag’dod Nizomiya madrasasida mudarris bo‘lgan G‘azzoliy nomi bilan bog‘liqdir. Nizomiya madrasalarida Falsafa va Mantiq darslari ham o‘qitilgan.

4) Nizomiya madrasalarida qo‘llaniladigan ta’lim usullari islom dunyosidagi madrasalarida qo‘llaniladigan an’anaviy ta’lim uslubiga aylandi. Nizomiya madrasalari, xususan, sharh va hoshiya uslubilarining islom dunyosida qo‘llanilgan an’anaviy ta’lim uslubiga aylanishida muhimrol o‘ynadi.

5) Arab tilini islom olamda ta’lim tili sifatida keng tarqalishi Nizomiya madrasalari tomonidan amalga oshirilgan. Turkchani sharh va hoshiya tili va fors tilini ham turk madrasalarida o‘rgatilishini ham Nizomiya madrasalari boshlab berdi.

6) Nizomiya madrasalari, turk va eron xalqlari va madaniyatlarini yaqinlashishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagani kabi, islom madaniyat va musulmon birodarligining tug‘ilishida hamfaol rol o‘ynadi.

7) Bugungi kunda o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan “ma’ruza va seminar tizimining” boshlanishini tashkil etadigan madrasalardagi “ma’ruza tizimi”, Nizomiyamadrasalari bilan tashkil etilgan va tarqatilgan.



8) Bugungi kunda zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan stipendiya, kredit va yotoqxona tizimi Nizomiya madrasalaridatashkil etilgan va tarqatilgan.

9) Madrasalarda doimiy o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va ular orasida bir tartibiy tizim yaratishga ham Nizomiya madrasalari tomonidan asos solingan.

10) Madrasani bitirganlarga “ruxsatnoma” berish amaliyotining dastlabki namunalari Nizomiya madrasalarida uchraydi.

Buyuk Saljuqiylar hukumatidan o‘rnak olgan Kichik Osiyo Saljuqiylari madrasalarida talabalarga ko‘proq imkoniyatlar yaratdi. Bu davrda madrasa davlatning yetakchi shaxslari tomonidan tashkil etilgan. Saljuqiylarga qarasak, madrasalarning keng tarqalgan ekanligini ko‘rib turibmiz. Quyida buning sabablarini ko‘rib chiqamiz:

1) Saljuqiylar imperiyasining kengayishi sababli ma’muriyati uchun davlat xizmatchilarini tarbiyalash kerakligi;

2) Islomni qabul qilmagan o‘g‘uzlar jamoalarining yangi e’tiqodlarini kuchaytirish, eskilarini unuttirish kerakligi;

3) Din arboblarini yetishtirish;

4) Yangi qo‘lga kiritilgan xalqlarni ma’naviy tomonidan ham fath etishi uchun zarur bo‘lgan odamlarni tarbiyalash;

5) Kambag‘al yoki iqtidorli o‘quvchilarni o‘qish va jamiyatga qo‘shish;

6) olimlarni bir majburiyat va maosh bilan madrasaga bog‘lash va ularni nazorat ostiga olish, shu bilan davlatga qarshi yashirin harakatlarda ishtirok etish imkoniyatini yo‘qotish;

7) davlat arboblarining ta’lim va ilm sevarligi. Birinchi madrasalar jome’ va masjidlarga bog‘liq holda, ularning yonida yoki ichida ta’lim berish uchun ajratilgan maxsus joylar bo‘lgan. Keyinchalik Saljuqiylar sultonlari o‘zlarining nomlari va xotinlarining nomlari bilan shu tipdagi ko‘plab madrasalar qurdilar.

Shubhasiz, diniy ta’limni rivojlantirish uchun tashkil etilgan Nizomiya madrasasi din arboblarni yetishtirib, ta’lim va tarbiya berardi. Bundanko‘rinib turibdiki, Nizomiya madrasasi turli xil va chuqur masalalarning keng dasturiga rioya



qilgan va diniy yoki unga yaqin mavzularga e'tibor qaratgan. Huart: "Bosh vazir Nizomulmulk tomonidan Bag'doddagi Nizomiya madrasasining tashkil etilishi bilan ko'proq maxsus va umumiy fanlarni o'qitish boshlanganini, Ibn Jevalikiyning arab tilidan kirib kelgan yot so'zlarni va yanglish so'zlarni o'rganishi, Ibn Xamdonning tarix va filologiyaga oid bo'lgan antologik unsurlarni to'plashi, Ibn Dahanning she'riyatdan ta'lif berishi, Ibn Anbariyning arab tili sirlarini ochib bergani va Ukbariy meros taqsimotidagi huquqiy qiyinchiliklarini hal qilish uchun arifmetik qobiliyatidan foydalanganligini ko'rish mumkin" deb ta'kidlagan.

Nizomiyadagi bosh o'qituvchilari va ularning yordamchilarning biografik tekshiruviga muvofiq ushbu madrasada o'qitiladigan fanlarning umumiy dasturi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Qur'on va Qur'on ilmlari
- Hadis va uning ilmlari
- Shofei usulul fiqhi va Ashariy kalomi
- Shofeiy fiqhi
- Arab tili va uning ilmlari
- Adabiyot va uning qismlari
- Riyoziyot va faroiz (arifmetika va merosning taqsimoti bilan bog'liq fan)

Nizomiya oliy muassasa bo'lmaganligi uchun o'qitishda foydalanadigan metodlari haqida to'xtalish qiyin. Chunki hech bir metod o'qituvchilarga talqin qilinmas ed. Ularning har birlarining erkin tatbiq qila olgan o'z metodlari bo'lganligiga shubha yo'q.

Vustanfeld madrasalardagi ta'lifdan haqida shunday degan: "Yevropa xristian universitetbo'lgani kabi masjidlarda va madrasalarda yechimsiz qolgan munozara bo'lardi. Nizomiyaning o'qituvchilari ham shunga o'xshash munozaralar tashkil qilardilar".

Xulosa

Xulosa o'mnida shuni aytish lozimki, XI asrda musulmon sharqining yirik shaharlarida tashkil topgan "Nizomiya" madrasalari o'zining keng qamroviligi,



dunyoga mashhur allomalarini yetkazib bergenligi, o‘zidan so‘ng boy ilmiy va ma’naviy meros qoldirganligi, o‘z davrida jahon ilm dargohlarining peshqadami bo‘lganligi bilan tarix zarvaraqlarida abadiy saqlanib kelmoqda. Ushbu ilmiy va ma’naviy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki kelajak avlodlarga yetkazish bizning, ya’ni bugungi kun yoshlaringin asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Temur tuzuklari / Alixon Sog‘uniy va Hamidulla Karomatov tarjimasi. – T.: G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
2. Navoiy A. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to‘plami. T. 13. –T.: Fan, 1997.
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. Shodmon Vohid Xusaynzoda tarjimasi. –T.: Adolat, 1997.
4. Xayrullayev M.M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.
5. Ali Muhammad Sulabiy. Davlatu as-Salajaqa. – Bayrut: Maktabatul Asriya. 2004.
6. Turan. O. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medeniyeti. İstanbul, 2015.
7. Göktürk T. Nızamîye medreselerinin eğitim-öğretimdeki rolü. İstanbul, 2014.